

**ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA POETIK SINTAKSIS VA
INVERSIYANING LINGVOPOETIK O'RNI**

Nazarova Sabrina, NamDU 3-kurs talabasi,

Email: nazarovasabrina046@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Erkin Vohidov she'riyatida poetik sintaksisning muhim unsuri sifatida inversiyaning qo'llanishi lingvopoetik tahlil qilinib, uning estetik va semantik xususiyatlari ochib berilgan. Shoirning turli she'rlaridan olingan misollar asosida so'z tartibining o'zgarishi orqali badiiy nutqning ta'sirchanligi, hissiy bo'yoqlari va ma'nodagi chuqur hissiylikning kuchayishi ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqotda, shuningdek, inversiyaning boshqa sintaktik vositalar bilan uyg'unligi va uning milliy poetik tafakkurdagi o'rni yoritiladi.

Tayanch so'z va birikmlar: poetik sintaksis, inversiya, lingvopoetika, stilistik vosita, badiiy tasvir, estetik ta'sir.

Annotation: This article presents a linguopoetic analysis of inversion as a key element of poetic syntax in the poetry of Erkin Vohidov. It explores the aesthetic and semantic features of inversion and how changes in word order enhance the expressiveness, emotional tone, and semantic depth of poetic language. Drawing on examples from various poems by the poet, the study highlights the expressive potential of inversion. Furthermore, the research examines the harmony between inversion and other syntactic devices, as well as its place in national poetic thought.

Keywords: poetic syntax, inversion, linguopoetics, stylistic device, artistic imagery, aesthetic effect.

Аннотация: В данной статье проводится лингвопоэтический анализ инверсии как важного элемента поэтического синтаксиса в поэзии Эркина Вохидова. Раскрываются эстетические и семантические особенности инверсии, её влияние на выразительность художественной речи, эмоциональную окрашенность и смысловую глубину. На основе примеров из различных стихотворений поэта показываются экспрессивные возможности инверсии. Также исследуется взаимодействие инверсии с другими синтаксическими средствами и её роль в национальном поэтическом мышлении.



Ключевые слова: поэтический синтаксис, инверсия, лингвопоэтика, стилистическое средство, художественный образ, эстетическое воздействие.

Inversiya tilshunoslikda soʻzlarning odatiy grammatik tartibini oʻzgartirish orqali fikrning urgʻuli qismini ajratib koʻrsatish, badiiy taʼsirni kuchaytirish yoki nutqqa yangi semantik qatlam kiritish usuli sifatida qaraladi. Nutqning bu koʻrinishlari til birliklarini qamrab olishi, lugʻaviy tarkibi, grammatik xususiyatlariga koʻra bir-biridan farqlanadi. Insonning nozik his-tuygʻularini ifodalashda oʻzgargan soʻz tartibi (inversiya) ham muhim rol oʻynaydi. Bu jihat oʻzbek tilining agglyutativ xususiyatlari bilan ham bogʻliq boʻlib, soʻz shakllari sintaktik vazifani belgilab bergani uchun tartibning oʻzgarishi mazmunga jiddiy taʼsir qilmaydi. Odatda, inversiya stilistik vosita sifatida adabiy asarlar, sheʼrlar va ritorik nutqlarda keng qoʻllaniladi. “Inversiya sheʼriyatda, ayniqsa, bayt va misralarning taʼsirchanligini oshirishda keng qoʻllaniladi. Bu usul orqali fikrning maʼnodagi oʻtkirliigi va hissiy boʻyoqlari kuchayadi.”¹

Soʻz tartibining poetik nutqdagi oʻrni tilshunoslar tomonidan alohida oʻrganilgan. Masalan, T.S. Yadixanova, O.B. Sirotinina, I.I. Kovtunova kabi rus olimlari inversiyaning kommunikativ vazifasini yoritib, uni gapning actual boʻlinishi va nutqiy vaziyat bilan bogʻliq holda tadqiq etganlar. Oʻzbek tilshunosligida esa Karim Xayitmetov gap boʻlaklari tartibidagi erkinlikning tarixiy taraqqiyotini koʻrsatib bergan. Shu asosda aytish mumkinki, inversiya poetik sintaksisning eng faol ishlatiladigan vositalaridan biri hisoblanadi.²

Erkin Vohidov oʻzbek poeziyasining yirik namoyondasi sifatida milliy sheʼriyatni falsafiy mazmun, hissiy boylik va badiiy aniqlik bilan boyitdi. Uning poetik uslubida metafora, soʻz oʻyinlari, ramziy obrazlar bilan bir qatorda inversiya ham alohida oʻrin tutadi. Shoir soʻz tartibini oʻzgartirish orqali fikrni kuchliroq ifodalaydi, badiiy obrazning taʼsirchanligini oshiradi va estetik zavq uygʻotadi. Erkin Vohidovning “Ishq savdosi” toʻplamidan olingan namunalar asosida inversiyaning lingvopoetik tahlili yoritiladi.³

Aytar edi bir zamon onam:

Oʻsib katta boʻlursan, oʻgʻlon.

¹ Anvarova. F, Kosimova. M Antonimlarning oʻzbek va ingliz tillaridagi tavsifi, oʻrni va ularning turli jihatdan tasniflanishi// Modern science and education: Achievements and development prospects, – B.223.

² Bazarbayeva.A, Shirinova.Sh Oʻzbek va ingliz tillaridagi antonimlar va konversivlarni zidlash (zidlash)// Taʼlim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 2024. – №1. – B.96.

³ Vohidov. E. Tanlangan asarlar// Toshkent, 2018. – B.



Oqil bo‘l-u mard bo‘l chinakam,
Bu ikki ish emasdir oson. (Haqiqat.)

Bu misralarda odatiy so‘z tartibi o‘zgartirilgan. Inversiya “emasdir oson” ifodasida ishlatilgan bo‘lib, bu shakl fikrning murakkabligini, mardlik va aqllilik kabi fazilatlarining qiyinligiga urg‘u beradi

Kelar, ortda qoldirib zamon,
Kelar, oshib dovon, marzalar.

Asta-asta bo‘lar namoyon
Lab ustida oltin sabzalar. (Chorlash.)

So‘z tartibiga ko‘ra, odatiy qurilish “Zamonni ortda qoldirib kelar” yoki “Namoyon bo‘lar oltin sabzalar” shaklida bo‘lishi kerak edi. Ammo inversiya “bo‘lar namoyon” va “oltin sabzalar”ni alohida urg‘ulash uchun ishlatilgan. Bu, ayniqsa, tasvirning badiiyligini oshirib, bahorning tabiiy jarayonlarini jonlantiradi.

Sevdim! – demay – sevmay chinakam,
Bahor! – demay – kelmasdan ko‘klam,
Yetdim! – demay – qo‘ymasdan qadam,
Baxtiyorman! – deb qilmay sado. (Kelajakka.)

Bu misralarda inversiya odatiy sintaktik tartibni buzadi: “Sevmay chinakam” o‘rniga “Chinakam sevmay” kelsa, odatiyroq bo‘lardi. Inversiya yordamida ma’naviy-ruhiy tushunchalar (“Sevish”, “Baxtli bo‘lish”) voqelikdan yuqori darajaga ko‘tariladi. Shoir bu usul bilan qalb holatini qaratib ko‘rsatadi.

Sochmang yerga nuqrani qumdek,
Sovurmanglar uni havoda.
So‘z ham xuddi haqiqiy so‘mdek
Yursin faqat oltin bahoda. (So‘z haqida so‘z.)

Bu satrda “faqat oltin bahoda yursin” shakli oddiyroq bo‘lardi. Biroq inversiya yordamida “yursin” fe‘liga kuchli urg‘u berilib, so‘zning Qadri, uning inson hayotidagi beqiyos o‘rni ta’kidlanadi. Bu satrda estetik-emotsional ta’sir kuchayib, o‘quvchida so‘zning qadrini his qilish kayfiyati yuzaga keladi.

Bas, xayolga cho‘kma, Erkin,
Bitmagay olam o‘yi,
Keng jahon sig‘gan ko‘zingni
Bosdi tong mujgon yuki. (Davron yuki.)

Bu yerda odatiy tuzilishda “Tong mujgon yuki ko‘zingni bosdi” bo‘lishi mumkin edi. Ammo inversiya yordamida "mujgon yuki" so‘ziga urg‘u beriladi, natijada



tongning og'irligi va hissiy kechinmalari yanada ko'proq seziladi. Lingvopoetik jihatdan bu tasvirga chuqur ma'no beradi.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, inversiya o'zbek she'riyatida, xususan, Erkin Vohidov ijodida lingvopoetik vosita sifatida muhim o'rin tutadi. Shoir so'z tartibini o'zgartirish orqali poetik matnni nafaqat estetik jihatdan boyitadi, balki semantic chuqurlik, hissiy kuch va ma'naviy mazmun bilan ham to'ldiradi. Inversiya yordamida she'riy nutqning ta'sirchanligi oshadi, o'quvchi esa matnni nafaqat intellectual, balki emotsional darajada ham qabul qiladi. Demak, inversiya faqatgina grammatik qurilma emas, u poetic tafakkurning ifodaviy vositasi sifatida badiiy matnning mukammalligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vohidov E. Ishq savdosi. She'riy to'plami – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980.
2. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis. - Toshkent: O'qituvchi, 1995.
3. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. - Toshkent., 2002.
4. Xayitmetov K. Hozirgi zamon o'zbek tilida inversiya. KD. Toshkent.,1967.
5. Mahmudov N, Islandarova Sh. Tilshunoslik nazariyasi. O'quv qo'llanma. - Toshkent., 2008.
6. Jalolov T. O'zbek adabiy tili stilistikasi – Toshkent: Fan, 1984, 152 B.
7. Hayitmetov A. O'zbek poeziyasi va xalq og'zaki ijodi - Toshkent: Fan, 1979.
8. Chomskiy N. Syntactic Structures - The Hague: Mouton, 1957, 117 B
9. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax: Cambridge: The MIT Press, 1965.
10. Jakobson R. Linguistics and Poetics – Cambridge: The MIT Press, 1960.